

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERISTETI

“RAQAMLI IQTISODIYOT VA AXBOROT TEXNOLOGIYALARI”
KAFEDRASI

Qo‘lyozma huquqida
УДК:336.2:6172.15.7

TOSHPO‘LATOV JAHONGIR ABDUG‘ANI O‘G‘LI

SOLIQ TIZIMIDA ZAMONAVIY AXBOROT-KOMUNIKATSIYA
TEXNOLOGIYALARINI SAMARALI QO‘LLASH

70310106 – Iqtisodiyotda axborot texnologiyalari va tizimlari mutaxassisligi
bo‘yicha

Magistr akademik darajasini olish uchun yozilgan

DISSERTATSIYA

Ilmiy rahbar:
PhD, dots. Nasimov B.V.



TOSHKENT – 2023

Magistrlik dissertatsiya ishi “ № 27 bayonnoma
Raqamli iqtisodiyot ” kafedrasida dastlabki himoyadan o‘tgan.

27 -sonli bayonnoma “ 26 ” 04 2023 y.

Kafedra mudiri: Abdullaev M.K., 22.05.23 U. Steerh
imzo sana

Ilmiy rahbar: Nasimov B.V., 22.05.23 Dr. Nasimov
imzo sana

Talaba: Toshpo‘latov J.A., 22.05.23 J.A.
imzo sana

“Himoyaga tavsiya etiladi”

“Raqamli iqtisodiyot va axborot texnologiyalari” kafedrası

mudiri, dots. M.K. Abdullayev U. Steerh

“ 31 ” may 2023 yil

Himoya 2023 yil “ 31 ” 05 soat 10⁰⁰ da Toshkent davlat iqtisodiyot
universitetida bo‘lib o‘tadi.

ANNOTATSIYA

Bugungi kunda soliq tizimida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va ilg'or avtomatlashtirilgan tahlil uslublarini keng joriy etish soliq to'lovchilarga soliq majburiyatlarini bajarishda har tomonlama ko'maklashish hamda soliqqa oid huquqbuzarliklar profilaktikasining ta'sirchan mexanizmlarini ishlab chiqish va soliq nazoratini amalga oshirishning zamonaviy uslublarini joriy etish, asosiysi, iqtisodiyotda xufiyona faoliyatni qisqartirish, shaffoflik darajasini oshirishga xizmat qilmoqda.

Soliq tizimida axborot texnologiyalarining vazifasi soliq xizmati organlari oldiga qo'yilgan masalalarni hal etish uchun to'langan soliqlar va yig'imlar tushumi haqida ma'lumotlar statistikasini ishlab chiqilgan maxsus algoritmlar asosida olib borish va tegishli organlarga uzatish, tushumlar dinamikasini tahlil qilish, boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun tahliliy ma'lumotlarni berish, tahliliy ma'lumotlar asosida hisobotlar tayyorlash masalalarini yechishni ta'minlashdan iborat. Shu bois, ushbu magistrlik dissertatsiya ishida soliq tizimida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining tutgan o'rni, ularning bajaradigan vazifalari va o'ziga xos xususiyatlari, soliq tizimida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini samarali qo'llashdagi imkoniyatlar va muammolar atroflicha bayon etilgan. Soliq va boshqa majburiy to'lovlar tushumini hisobga olish hamda nazorat qilish darajasini oshirishga, soliq tushumlarining qo'shimcha manbalarini aniqlash va soliq to'lashdan bo'yin tovlashning oldini olishga, shuningdek soliq to'lovchilar uchun ko'rsatilayotgan interaktiv xizmatlar turini kengaytirish hamda sifatini oshirishga yo'naltirilgan muammolar va ularni o'rganish masalalari ushbu magistrlik dissertatsiyada atroflicha tahlil qilingan va soliq tizimida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini samarali qo'llashning istiqboldagi yo'nalishlari belgilab berilgan.

Kalit so'zlar: soliq, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, interaktiv xizmatlar, soliq xizmati, soliq organlari, soliq tizimi, Davlat soliq xizmati organlari, Davlat soliq qo'mitasi, sun'iy intellekt, axborotlashtirish, elektron raqamli imzo, soliq to'lovchilar, elektron to'lov, elektron davlat xizmatlari.

ANNOTATION

Today, the widespread introduction of modern information and communication technologies and advanced automated analysis methods in the tax system provides comprehensive assistance to taxpayers in fulfilling their tax obligations, as well as the development of effective mechanisms for the prevention of tax offenses and the introduction of modern methods of tax control. mainly serves to reduce secret activities in the economy and increase the level of transparency.

In the tax system, the task of information technologies is to carry out statistics on the income of taxes and fees paid to solve the issues before the tax service authorities, based on special algorithms developed and transfer them to the relevant authorities, analyze the dynamics of revenues, make management decisions. to provide analytical data, to provide solutions to the issues of preparing reports based on analytical data. Therefore, in this master's thesis, the role of information and communication technologies in the tax system, their functions and characteristics, opportunities and problems in the effective use of modern information and communication technologies in the tax system are described in detail. To increase the level of accounting and control of tax and other compulsory payments revenue, to identify additional sources of tax revenue and to prevent tax evasion, as well as to expand the type and quality of interactive services provided to taxpayers. The problems and issues of their study are analyzed in detail in this master's thesis, and the prospective directions of effective use of modern information and communication technologies in the tax system are defined.

Key words: tax, information and communication technologies, interactive services, tax service, tax authorities, tax system, State tax service authorities, State Tax Committee, artificial intelligence, information, electronic digital signature, taxpayers, electronic payment, electronic state services.

MUNDARIJA

Annotatsiya.....	3
Mundarija.....	5
Keltirilgan jadvallar ro'yxati.....	6
Keltirilgan rasmlar ro'yxati.....	7
Keltirilgan qisqartmalar.....	9
KIRISH.....	10
Dissertatsiya mavzusining asoslanishi va uning dolzarbligi.....	10
Tadqiqotning maqsadi va vazifalari.....	12
Tadqiqotning asosiy muammolari va savollari.....	12
Tadqiqotning ob'ekti va predmeti.....	13
Tadqiqotning ilmiy yangiligi.....	14
Dissertatsiya tarkibining qisqacha tavsifi.....	16
I BOB. ADABIYOTLAR SHARHI.....	18
1.1 Mavzuga oid ilmiy-nazariy qarashlar.....	18
1.2 Mavzuga oid maxalliy me'yoriy -xuquqiy xujjatlar sharhi.....	23
1.3 Xulosa.....	30
II BOB. METODOLOGIYA.....	31
2.1 Ma'lumotlarni to'plash jarayoni.....	31
2.2 Tahlil uchun qo'llaniladigan usullar.....	31
2.3 Tadqiqotni o'tkazish uchun zarur sharoitlar.....	32
2.4 Tadqiqot jarayonida kutilayotgan muammolar va ularning yechimi.....	32
2.5 Tadqiqotdan kutilayotgan ilmiy va amaliy natijalar.....	33
III BOB. TAHLIL VA NATIJALAR.....	36
3.1. Soliq tizimida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan unumli foydalanish usullari.....	36
3.2. Soliq tizimida foydalaniladigan platformalar va ilovalarning o'ziga xos xususiyatlari.....	61
3.3. Soliq tizimida sun'iy intellekt texnologiyalarini qo'llashning o'rni va ahamiyati.....	73
XULOSA.....	84
Tadqiqot tahliliga tegishli natijalarning qisqacha ifodasi.....	84
Tadqiqotning asosiy taklif va tavsiyalari.....	85
Tadqiqot cheklovlari va kelgusi tadqiqotlar uchun takliflar.....	86
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.....	87
ILOVALAR.....	91

KIRISH

Dissertatsiya mavzusining asoslanishi va uning dolzarbligi. Hozirgi kunda iqtisodiyotni modernizatsiya qilish va hukumatning iqtisodiyotni rivojlantirish sharoitida davlatning iqtisodiyotni tartibga solishdagi roli kuchayib, o‘z oldiga qo‘yilgan maqsad va vazifalarni amalga oshirishda avvalombor soliq siyosati, solik ma‘murchiligi, shu jumladan soliq tizimida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini samarali qo‘llash ham muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi.

Respublikamizda so‘ngi yillarda soliq islohotlariga alohida e‘tibor qaratilib, soliq organlari faoliyatini tubdan isloh qilish, soliq qonunchiligini soddalashtirish va tadbirkorlik sub‘ektlarini qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan tendentsiyasi hamda soliq organlarining ishlarini axborot texnologiyalari orqali bajarish muntazam amalga oshirilib kelinmoqda. Bu borada Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoev tomonidan so‘ngi paytlarda qabul qilinayotgan Farmon va qarorlar soliq siyosatini erkinlashtirish, tadbirkorlikni rivojlantirish, ijtimoiy sohani rag‘batlantirish, soliq yukini kamaytirish, soliq xizmatlaini axborot-kommunikatsiya texnologiyalari orqali amalga oshirish hamda soliq ma‘murchiligini takomillashtirishga qaratilayotganligi alohida ahamiyatga ega.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrdagi “Raqamli O‘zbekiston — 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6079-sonli farmoni bilan tasdiqlangan “Raqamli O‘zbekiston — 2030” strategiyasida “Davlat soliq qo‘mitasining tizimida axborot tizimlarini joriy etish, davlat soliq inspeksiyasida soliq to‘lovchilarga interaktiv xizmatlaridan foydalanishga sharoit yaratish, Soliq bazasini aniqlash maqsadida nometall materiallarni karyerlardan olib chiqishni hisobga olishning avtomatlashtirilgan tizimini joriy etish, Soliq bazasini aniqlash maqsadida noruda materiallarni konlardan olib chiqishni hisobga olishning avtomatlashtirilgan tizimi, Soliq to‘lovchilarni segmentlash, xavflilik darajasidan kelib chiqib, inson omilini to‘liq bartaraf etadigan soliq nazoratini amalga oshirishni nazarda tutuvchi “Tahluka-tahlil” dasturiy mahsulotini yaratish, Soliq auditining har bir qadamini